



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
Laziz Niyozovich Xudoyorov Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
Ибодулла Хасанович Ибрагимов Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
Xilola Nematovna Ochilova “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
Ирода Аминжонова Умурзакова Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
Botir Hayat Muradov Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
ИНВЕСТИЦИЯ	
Ойдин Давроновна Хамракулова Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Shaxnoza Ergashevna Samandarova Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

3. Юлдашева С.Х. Совершенствование учёта и аудита экологических затрат на промышленных предприятиях: автореф. дис. ...канд. экон.наук. Тошкент, 2011. с. 24.

<p>Х.Абдуллаев</p> <p>Методы и процедуры проведения экологического аудита</p> <p>Аннотация. В данной статье проведен научный анализ научно-теоретических основ проведения экологического аудита в Узбекистане, методов, применяемых в последнее время в аудиторской деятельности, а также проблем и перспектив развития отрасли. Изучены правовые документы, определяющие основы проведения экологического аудита в Узбекистане, а также международный опыт. При этом также изучались вопросы соответствия экологического аудита международным стандартам, формирования имиджа предприятия и укрепления экологической безопасности с помощью различных методов.</p> <p>Ключевые слова: экологический аудит, индуктивные и дедуктивные методы, процедуры, зеленая экономика, экологический мониторинг.</p>	<p>Kh.Abdullaev</p> <p>Methods and procedures for conducting an environmental audit</p> <p>Abstract. This article provides a scientific analysis of the scientific and theoretical foundations of environmental auditing in Uzbekistan, methods used recently in auditing, as well as problems and prospects for the development of the industry. The legal documents defining the principles of environmental audit in Uzbekistan, as well as international experience, have been studied. At the same time, the issues of compliance of environmental audit with international standards, the formation of the company's image and the strengthening of environmental safety were also studied using various methods.</p> <p>Keywords: environmental audit, inductive and deductive methods, procedures, green economy, environmental monitoring.</p>
---	---

Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti

CHAKANA SAVDO AYLANMASINING MOHIYATI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Maqolada chakana savdo aylanmasining mohiyati, uning turlari, subyektlari, davrlar maboynida savdo aylanmasining rivojlanishi, savdo aylanmasining tarkibi, hududlar bo'yicha o'zgarishlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: chakana savdo, savdo aylanmasi, yirik savdo korxonalari, YaTTLar, uyushmagan savdo, hududlar, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik mahsulotlari, chorvachilik.

Kirish. Chakana savdo iqtisodiyotning muhim sohalaridan biridir. Chakana savdo natijasida insonlar o'z ehtiyojlariga kerakli mahsulotlar, tovarlarni sotib olib quvvatlarini saqlab, hayot kechiradilar, ishlab chiqarish korxonalari esa mahsulotlarni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarini pul shaklida ma'lum darajada ko'paytirib (foydasi bilan) qoplab, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zanjirining uzliksizligini ta'minlaydilar. Chakana savdo tovar aylanmasi muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, yakuniy iste'mol uchun tovarlarni savdo shahobchalaridan aholiga, ommaviy iste'mol uchun muassalarga sotishdir. Savdo shahobchalaridan tovarlarni iste'molchilarga sotish naqd pulga, plastik kartochkalar, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali naqd pulsiz amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Savdo xizmatlar sohasining qadimiy turlaridan bo'lib, savdoning mohiyati va ahamiyati haqida juda ko'p olimlar ilmiy maqolalar, monografiya va darsliklar yozishgan. Bu borada olimlarimizdan B.A.Abdukarimov, M.K.Pardayev, U.X.Xudoyberdiyev, F.H.Qudratov, N.Tuxliyev, Y.O'rinboyeva kabilarni e'tirof etish lozim. Lekin ilmiy adabiyotlarda savdo xizmatlarining nazariy asoslari, ahamiyati va hozirgi zamondagi rivojlanish omillari yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola savdo xizmatlarining muhim ahamiyatini va zamonaviy rivojlanish omillarini tahlil qilib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda mantiqiy fikrlash, jamlash, guruhlash, taqqoslash kabi iqtisodiy tahlilning usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Keyingi yillarda muomaladagi naqd pul massasini kamaytirish maqsadida tovarlarni iste'molchilarga naqd pulsiz sotish rivojlanmoqda. Tovarlar aholiga savdo shahobchalari orqali sotiladi. Savdo shahobchalari 20250-yil 1-yanvar holatiga 80118 ta bo'lib, ularning ko'plari kichik savdo shahobchalaridir.

Chakana savdo aylanmasi hajmiga yirik savdo korxonalari, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar(YaTT), hamda uyushmagan savdo (dehqon bozorlari kabilar) aylanmasi kiritiladi. Yirik savdo korxonalari va YaTTlar belgilangan tartibda statistika organlariga tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha hisobot beradilar. Uyushmagan savdo bo'yicha savdo aylanmasi hajmi tanlab kuzatish yo'li bilan aniqlanadi.

Chakana savdo aylanmasi hajmi yildan yilga muntazam ravishda ko'payib bormoqda.
Chakana savdo aylanmasining 2020-2024 yillardagi hajmi

yillar	2020	2021	2022	2023	2024	2024yil 2020 yilga nisbatan %
ko'rsatkichlar						
Chakana tovar aylanmasi, mlrd so'm	168649,0	216694,6	270687,2	346324,8	403431,8	239,2

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yildan yilga muntazam ravishda har yili ko'payib bormoqda. Ushbu davrda besh yil davomida, chakana tovar aylanmasi 2,4 baravar ko'paygan.

Tovar aylanmasining ko'payishi aholi daromadlarining ko'payib va turmush sharoiti yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. 2024-yilda chakana savdo Tovar aylanmasi 403431,8 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, uning 338802,6 mlrd so'mi ya'ni 84,0 foizga yaqini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi subyektlarga, yirik korxonalar Tovar aylanmasi 64629,2 mlrd so'm bo'lib, 16,0 foizni tashkil etadi.

Chakana savdo tovar aylanmasining 2024-yildagi hajmini hududlar bo'yicha o'rganganda aholisi ko'p hududlar katta hissani tashkil etadi. Bunda Toshkent shahri (26,1%), Toshkent viloyati (9,6%), Samarqand viloyati (8,9%), Farg'ona viloyati (8,7%) kabi hududlar katta hissani, Sirdaryo (1,6%), Jizzax (2,9%) viloyatlari kichik hissani tashkil etadi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi asosan qishloq xo'jaligining dehqonchilik mahsulotlari va chorvachilikka to'g'ri keladi. Bunda dehqonchilik mahsulotlarining asosini sabzavotlar, mevalar, ziravor o'simliklar tashkil etsa, chorvachilikda echki, qo'y, qoramollar, otlarning sotilishi, tuxum, sut va sut mahsulotlari kiradi. Mamlakat bo'yicha 2024-yilda uyushmagan savdo Tovar aylanmasi 37932,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 114,5 foizga o'sgan. Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasini hissasi Namangan, Surxondaryo, Andijon viloyatlarida katta bo'lib, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida juda kichikdir. Chakana savdo tovar aylanmasi hajmini aholi jon boshiga hisoblaganda 2024-yilda mamlakat miqyosida 10853,3 ming so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilga nisbatan 107,7 foizga ko'paygan. Hududlar bo'yicha chakana savdo Tovar aylanmasi sanoati rivojlangan Toshkent shahrida 34237,3 ming so'mni, Navoiy viloyatida 13824,9 ming so'mni, Toshkent viloyatida 12552,4 ming so'mni tashkil etadi.

Aholi daromadlari ko'payib, chakana savdo Tovar aylanmasining hajmi yuqori sur'atlar bilan o'saveradi. Chunki mamlakat iqtisodiy siyosatining negizida aholi daromadlarini ko'paytirish, aholi kambag'alligini qisqartirish va aholi turmush farovonligini yaxshilash turibdi. Endigi vazifa savdo xizmatining sifatini yuksaltirish va samaradorligini oshirishdan iborat.

Savdo xizmatining sifatini yaxshilash va mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

- Ma'lumki ko'pgina chakana savdo shahobchalari kichik, talabga javob beradigan binolarda joylashmagan, tovarlarni saqlash ularning xususiyatlaridan kelib chiqmaydi.

Natijada bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan tovarlar bir joyda saqlanadi;

- Sotuvchi, savdo xodimlarinign hammasini ham Tovar xususiyatlarini, saqlashni, ishlatishni biladi deb bo‘lmaydi. Shuning uchun sotuvchilarni qaysi tovarlarni sotishi lozimligiga qarab, qisqa kurslarda o‘qitish lozim;

- Chakana savdo shahobchalariga kam miqdordagi mahsulot – tovarlar zarur. Shuning uchun ularning buyurtmalariga asosan hududdagi bir necha savdo shahobchasiga bir transport bilan tovarlarni yetkazib berishni tashkil etish lozim. Bunda transport harajatlari kamayadi hamda sotuvchilar Tovar olib kelishdan ozod bo‘lib, shahobchada savdo bilan shug‘ullanishga imkoniyat bo‘ladi.

Chakana savdo Tovar aylanmasi oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari aylanmasidan tashkil topadi. Aholi daromadlari ko‘paygan sari bu ikkala turdagi tovarlar savdo aylanmasi muntazam ravishda ko‘payib bormoqda.

2012-yilda oziq-ovqat tovarlari savdo aylanmasi 18166,4 mlrd. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yili bu tovarlar savdo aylanmasi 80093,0 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lib, ushbu davrda 4,4 barobar ko‘paygan.

Xulosa va takliflar. Inson ehtiyojlari cheksiz deyiladi. Aholi sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qila boshlagandir, lekin har qanday sharoitda ham qorni to‘yganicha iste‘mol qiladi. Nooziq-ovqat tovarlari bo‘yicha inson ehtiyojlari cheksiz degan qoida to‘g‘ri keladi. Chunki yillar sayin kiyim-kechaklarning yangi fason va modellari, uy jihozlarining (changyutgich, muzlatkich, kir yuvish mashinalari, mobil telefonlar kabilar) yangi turlari ishlab chiqarilmoqda, yengil mashinalarning samarali tiplari ko‘paymoqda. Shuning uchun ham umumiy chakana tovar aylanmasida oziq-ovqat tovarlari hissasi kamayib, nooziq-ovqat tovarlari hissasi oshib bormoqda. Oziq-ovqat tovarlar aylanmasi hajmi 2012-yildagi 49,2 foizdan, 2021-yilga kelib 41,5 foizni tashkil etgan. Chakana tovar aylanmasida oziq-ovqat tovarlari aylanmasi hissasi kamayib, nooziq-ovqat tovarlari hissasi ortib borsa, aholi daromadlarining ko‘payib borayotganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston aholisi daromadlari yildan yilga ko‘payib bormoqda. Bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham ko‘zda tutilgan. Demak chakana savdo aylanmasida nooziq-ovqatlar savdo aylanmasi hissasining ortib borish tendensiyasi saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qudratov F.X, Abdukarimov B.A. va boshqalar, Savdo iqtisodiyoti muammolari, O‘quv qo‘llanma. 2016-yil.
2. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti, T.:”Iqtisod-moliya” 2010-yil.
3. Abdukarimov B.A., Komilova N.A., Abdukarimov F.B. Актуальные вопросы развития торговли в Узбекистане, Монографиya T.: “Iqtisodiyot” 2010-yil 96 bet
4. Abdukarimov B.A va boshqalar, Savdo iqtisodiyoti o‘quv qo‘llanma I-qism, T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2013-yil.
5. vvv. stat.uz.

<p style="text-align: center;">М.Худойбердиева Сущность и развитие розничного товарооборота</p>	<p style="text-align: center;">М.Khudoyberdieva The essence and development of retail trade turnover</p>
<p>Аннотация. В статье описаны сущность розничного товарооборота, его виды, субъекты, динамика товарооборота по периодам, структура товарооборота, изменения по регионам.</p> <p>Ключевые слова: розничная торговля, товарооборот, крупные торговые предприятия, СНТ, неорганизованная торговля, регионы, сельское хозяйство, сельскохозяйственная продукция, животноводство.</p>	<p>Abstract. The article describes the essence of retail trade turnover, its types, subjects, dynamics of trade turnover by periods, structure of trade turnover, changes by region.</p> <p>Keywords: retail trade, trade turnover, large trading enterprises, SNT, unorganized trade, regions, agriculture, agricultural products, livestock.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.